

Assalomu alaykum, Muhtaram ustozlar!

Aziz talabalar!

Bugungi quvonchli kunlarda siz azizlarni, yangi yil bayrami bilan chin qalbindan muborakbod etaman. Sizga oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik tilayman!

Albatta, o'tayotgan har bir yil bizga umr va vaqt qadrini yanada chuqurroq his etishimizga, amalga oshirayotgan ishlarimizni sarhisob qilishimizga ko'zgu, kelajak rejalarimizni tuzishga, ustuvor maqsadlarimizni aniqlab olishimizga turtki bo'ladi.

Ortda qolayotgan bir yil nafaqat Respublikamiz, balki butun dunyo hamjamiyatida sinovli yil bo'ldi, desak adashmaymiz. Anglab turganingizdek, koronavirus pandemiyasi dunyo davlatlari, xususan, mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy holatiga ham o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi.

Ammo mana shunday sinovli yilda hamjihat bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib tom ma'noda insoniylik tuyg'ularimizni namoyon etdik, desak mubolag'a bo'lmaydi!

Jonajon diyorumiz O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanadagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi **Uchinchi Rennessans** bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi.

Kuni kecha muhtaram Prezidentimizning Parlamentga Murojaatnomasida 2021-yil — **“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb nomlash taklif etildi. Bu esa mamlakatimizning barcha talaba-yoshlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor deb qarasa bo'ladi.

Zotan, o'zgarishlar davrida ekanmiz, bu jarayonni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yurtboshimiz ham har bir nutqida zamonaviy texnologiyalarning mamlakatimiz rivojida qachalik ahamiyatli ekanligiga alohida to'xtalib o'tmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti esa bugungi kunda respublikadagi axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlaydigan tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Shu boisdan, yildan yilga universitetimizda tahsil olishni istayotgan yoshlarimizning safi ko'payib bormoqda. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, 2019/2020 o'quv yilida universitetga jami 15 843 nafar abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, 2020/2021 o'quv yilida 25 957 nafar abituriyent o'qishga kirish uchun hujjat topshirgan. Joriy o'quv yilida 2019-yilga nisbatan 10 114 nafar yoki qariyb 40% ko'p hujjat qabul qilindi. Bu juda quvonarli hol, albatta!

Ayni vaqtda universitetda jami 8 500 dan ziyod talaba tahsil olmoqda.

Universitetimiz professor-o'qituvchilari 2020-yilda ilmiy yo'nalishda ham ko'pgina yutuqlarga erishdi. Xususan, ilmiy maqolalarni SCOPUS bazasiga kiritilishi 1,5 barobarga oshdi. Bu o'z navbatida TATUda ilmiy salohiyat oshib borayotganidan dalolat beradi.

2020/2021 o'quv yilidan universitet magistraturasiga 22 ta mutaxassislik: Kompyuter grafikasi va dizayn, Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari, Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari, Ma'lumotlar ilmi (Data Science), Sun'iy intellekt, Optik tolali tarmoqlar texnik ekspluatatsiyasi, Multiplikatsion filmlar texnologiyalari, Sun'iy yo'ldoshli aloqa tizimlari kabi yangi mutaxassisliklarga qabul amalga oshirildi.

COVID-19 koronavirus pandemiyasi sababli joriy etilgan karantin davrida talabalarning masofadan turib tahsil olishlari uchun masofaviy ta'lim tizimi (tuit.uz, moodle.tuit.uz, lms.tuit.uz) ishga tushirilgan.

2020-2021-o'quv yili qabulida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun test sinovlarini o'tkazish rejalashtirilgan binolarning geomanzilini ko'rsatib beradigan **“ImtihonGo”** nomli maxsus mobil ilova ishlab chiqildi. Ushbu ilova abituriyentlar tomonidan o'n mingdan ortiq yuklab olindi.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan Davlat imtihonlarini shaffofligini ta'minlash maqsadida barmoq izi identifikatsiyasi yordamida pasport egasi haqiqiylikini aniqlaydigan maxsus uskuna yaratildi.

Shu o'rinda yil davomida talabalarimiz erishgan yutuqlarni ham ta'kidlab o'tmaslikning iloji yo'q. Xususan, **"ROBOT.UZ-2020"** respublika tanlovida, Britaniya Kengashi va London Metropolitan universiteti tomonidan Sreative Spark global dasturida doirasida tashkil etilgan Big Idea Challenge xalqaro tanlovida, **"mGovAward"** davlat xizmatlari mobil ilovalarini yaratish bo'yicha tanlovida, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan **"TechnoWays"** texnologik rivojlanish marafonining II mavsumida universitetimiz talabalari muvaffaqiyatli ishtirok etib g'olib bo'lishdi!

Albatta, talabalarimizning bunday katta yutuqlarga erishishida universitet professor-o'qituvchilarining o'rni va mehnati beqiyos.

O'ylaymanki, kirib kelayotgan 2021-yil bundan ham katta yutuqlarga, bundan ham ko'p fayzli ishlarga boy bo'ladi.

Aziz talabalar!

Oldingizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishishingizda sizga doimo kuch-g'ayrat, omad va zafarlar tilaymiz. Yuqori natijalarni qayd etishingizda universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilari o'zlarining bor bilim va salohiyatini safarbar etadi.

Hurmatli professor-o'qituvchilar!

Universitetda tahsil olayotgan talabalarimiz bugungi jahon mehnat bozoriga axborot texnologiyalari bo'yicha raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishida, jonajon vatanimizning ravnaqiga o'zining beminnat hissasini qo'shishida sizning o'rningiz katta. Bu yo'lda sizga doimo kuch-g'ayrat tilayman!

Yana bir bor sizlarni, siz orqali barcha oila a'zolaringizni kirib kelayotgan yangi 2021-yil bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman! 2021-yil har bir oila, har qaysi xonadonga qut-baraka, baxt va omad olib kelsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Sarvar Babaxodjayev,

TATU rektori